

TINISH BELGILARINING QO‘LLANISH O‘RNI VA TAMOYILLARI

Aziza Navro‘zova Aslonovna

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

2- bosqich magistranti

Annatsiya. Ushbu tadqiqotda tinish belgilarining qanday usul va tartibda qo‘llanishi yoritib berilgan. Bu narsa punktuatsiya tamoyillariga asoslanishi aytilgan. Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanish tamoyillari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: punktuatsiya, tinish belgilari, farqlanuvchi tamoyil, uslubiy tamoyil, mantiqiy-grammatik tamoyil, darak intonatsiyasi.

Kirish. Muayyan til yozuv sistemasining tarkibiy qismlardan bir punktuatsiyadir. Uning qoidalarni puxta egallash va ulardan amalda o‘rinli foydalanish yozma nutq uchun muhim hisoblanadi. Punktuatsiyaga umumxalq, umummillat madaniy boylik sifatida qarash mumkin. Undan fan, adabiyot, nashriyot, matbuot va maorif xodimlari—barcha keng foydalanadi. Aslida “punktuatsiya” so‘zi latincha punktium (punkt — nuqta, belgi, shakl) so‘zidan olingan bo‘lib, uch ma’noda ishlatiladi: tinish belgilari sistemasini o‘rgatuvchi bo‘lim (soha), tinish belgilarining qo‘llanish qoidalari va tinish belgilari ma’nolarida yuritiladi. Punktuatsiya tinish belgilarining qo‘llanilishi haqidagi yagona qonun-qoidalar yig‘indisidir. Punktuatsiya tinish belgilarining miqdori, vazifasi, qo‘llanish sistemasi va tartibini o‘rgatadi. Harflar yig‘indisi alfavitni, to‘g‘ri yozuv qoidalari yig‘indisi orfografiyani, to‘g‘ri talaffuz normalari orfoepiyani tashkil etganidek, tinish belgilar sistemasi punktuatsiyani vujudga keltiradi. Tinish belgilari o‘z vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari jihatidan yozuvning boshqa vositalaridan (masalan: raqamlar, harflar, ayrim ilmiy belgilar, transkripsion va diakritik belgilar va boshqalardan) alohida ajralib turadi. Tinish belgi bo‘lishi uchun: a) ijtimoiy-sotsial vazifasini bajarishi; b) vazifasi gapning semantik-grammatik jihati bilan bog‘liq bo‘lishi; v) qo‘llanishi

grammatik (ko'proq sintaktik) qonuniyatga asoslanishi; g) o'z grafik shakliga, o'z qo'llanish sistemasiga ega bo'lishi lozim. Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Yozma matnning mazmuni, ma'no turlari (ottenkalari, qirralari), sintaktik qismlari (strukturasi), bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining roli muhimdir. Punktatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon eta olish imkoniyyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi: bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday ma'no va vazifada qo'llangan bo'lsa, mazkur tinish belgi o'quvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifasida tushuniladi. Punktatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liqdir. Tinish belgilari yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (Masalan, leksik, morfologik vositalar, harflar yoki diakritik belgilar) bilan ifodalash mumkin bo'lmagan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning tushunilishini osonlashtirish uchun qo'llanadi. Tinish belgilarining qanday usul va tartibda qo'llanishi punktatsiya tamoyillari asosida belgilanadi. Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanishi quyidagi tamoyillarga asoslanganligini ko'ramiz:

Mantiqiy-grammatik tamoyil. Bu tamoyil nutqning semantik-grammatik jihatlari bilan bog'liq bo'lib, nutq mazmuni, nutq strukturasi va nutq intonatsiyasini o'z ichiga oladi hamda shularga asoslanadi. Har bir nutq parchasiga (gapga) xos shu uch jihatning dialektik birligini quyidagi misolda ochiq ko'rish mumkin: Xo'p, soat oltiga yetib boraman. (A. Qahhor) Bu gapdagi mazmuniy tomon: xabar ma'nosini anglatish, voqeani ta'kidlash; tarkibiy tomon: sodda gap shaklida, besh so'zdan iborat, gap tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan aloqaga kirishmaydigan, tasdiqni bildiruvchi so'z («xo'p») bor; intonatsion tomon: pasayuvchi intonatsiya – darak intonatsiyasi, nuqta intonatsiyasi bilan aytiladi, «xo'p» so'zi qisqa pauza bilan ajratib talaffuz etiladi. Bu gapdagi vergul va nuqta shu uch xususiyatga asoslangan holda ishlatilgandir.

Uslubiy tamoyil. Tinish belgilarining nutq shakllariga, adabiy til funksional uslublariga bog'liq holda ishlatilishidagi umumiy norma va qonuniyatlar shu tamoyil asosida belgilanadi. Agar fikr ifodalashning ikki xil uslubiy ko'rinishi hisoblanmish o'zga (ko'chirma) va o'zlashtirma gaplarda tinish belgilarining bir-biridan tubdan farqli ishlatilishini ko'z oldimizga keltirsak, uslubistik tamoyilning mohiyati yanada oydinlashadi. Uslubiy tamoyil keng ma'noda bo'lib, tinish belgilarining ishlatilishidagi individual uslubga — ayrim bir yozuvchining uslubiga — xos tomonlarni ham o'z ichiga oladi.

Farqlanuvchi tamoyili. Bu tamoyil yozuv texnikasi, formasi bilan bevosita aloqadordir. Tinish belgilarining ilmiy asarlarda, ba'zi hujjatlarda (maktublar, e'lonlar, radio va televideniye dasturlari, kitob titullarida), havolalarda, manbalarda qo'llanishi ko'proh shu tamoyilga asoslanadi. Yozma nutqni soddalashtirish va qisqartirishda, tinish belgilarining qo'sha qo'llanishidagi tartib va sistemani belgilashda, yozma nutq qismlarining chegarasini aniqlashda — farqlashda — differentsiatsiya prinsipi ahamiyatlidir.

Hozirgi yozuvimizda qo'llanuvchi tinish belgilarining umumiy miqdori o'nta bo'lib, ularning har biri o'z grafik shakliga ega; ular yozma nutqda ma'lum mahsadlar uchun ishlatiladi va anih bir vazifani bajaradi. Har bir tinish belgi o'z vazifasini va qo'llanish o'rniga egadir. Tinish belgilarini qo'llanish o'rni jihatidan quyidagicha gruppalash mumkin:

1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari: nuqta, so'roq va undov belgilari;
2. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari: vergul;
3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari: 1) gap boshida va o'rtasida qo'llanuvchilar: tire; 2) gap oxirida va o'rtasida qo'llanuvchilar: ikki nuqta va nuqtali vergul; 3) gap boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanuvchilar: qo'shtirnoq, havs va ko'p nuqta.

Xulosa. Demak, tinish belgilarining yozma nutq jarayonida ishlatilishi o'z ilmiy-nazariy va ijtimoiy-amaliy asosiga egadir. Ular yozma nutqning mazmuniy, grammatik,

intonatsion munosabatlarini, sintaktik bo'linishini belgilovchi, stilistik ravonligini ta'minlovchi ko'rsatgichdir, vositadir.

1. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1984.

2. Valgina N.S. Neobichnoye. v obichnom. Zametki o punktuatsii A. Axmatovoy // Russkaya rech, 1979, № 6. S. 22–29.

3. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili imlo-ishora qoidalari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.

4. Safronova I. P. Esteticheskaya funktsiya punktuatsii v poezii M.Svetayevoy. KD.– Ijevsk, 2004 g.va b.Cho'lpon she'riyatida tinish belgilari // O'zbek tili va adabiyoti.- 2020.- №4.- B.26-33.

5. Tarasova A.N. K voprosu izucheniya punktuatsionnoy sistemi tatarskogo yazika // Filologicheskiye nauki. - Tambov: Gramota. - 2014. №4 (ch.2). - S. 191-193.

6. Mayzenger N.V. Naznacheniyе punktuatsii v angliyskom yazike // Materiali konferensii molodix uchenix (k 50-letiyu fakultetainostrannix yazikov). - Barnaul: Izd-vo BGPU, 2002. - S. 34-37.

7. O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. Tuzuvchilar: N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliyev, N.Mahkamov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2015.

8. O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik, ikkinchi tom. – Toshkent: «Fan», 1988.

9. Xaylova Ye. G. Punktuatsiya stixotvorenii I.F. Annenskogo. KD. – M., 2005 g.

10. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.